



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2023 - yil 17 - mart

175-8-0-Q/23

Surxondaryo viloyati hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son
2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot
strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid
davlat dasturi to‘g‘risida**

2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarga muvofiq aholining hayot darajasini yanada yuksaltirish, ta’lim sifatini ilg‘or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish hamda kambag‘allikni qisqartirish borasidagi islohotlarimizni yangi bosqichga olib chiqish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-sonli Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Quyidagilar:

Surxondaryo viloyatida 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi 1-ilovaga muvofiq;

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirish bo‘yicha viloyat ishchi guruhi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat hokimining tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlari, guruh rahbarlari, viloyat idora, boshqarma va tashkilotlar rahbarlari, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari:

Davlat dasturi ijrosini samarali, qat'iy tartib-intizom asosida tashkil etib, 10 kun muddatda har bir tuman, shahar va mahalla kesimida amaliy chora-tadbirlarni belgilashi hamda keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida muntazam ravishda hisobot berib borsin;

mazkur Farmonda belgilangan vazifalar ijrosini so'zsiz ta'minlash maqsadida zaruratga ko'ra viloyat hokimining qarori va farmoyishi loyihalarini kiritib borsin.

4. Viloyat hokimligi guruh rahbari (F.Ochildiyev), Termiz shahar va tumanlar hokimliklari Farmon talablaridan kelib chiqqan holda Davlat dasturining bajarilishi bo'yicha xalq deputatlari viloyat, shahar va tumanlar Kengashlari kun tartibiga belgilangan muddatlarda masalalar kiritib borsin.

5. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Oripov:

a) xalqimizning og'irini yengil qilish, aholi uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish va ularning harajatlarini tejash maqsadida, 2023-yil 1-iyuldan boshlab:

barcha davlat organlari va tashkilotlarida "Aholi va tadbirkorlarga servis sifatini oshirish" chora-tadbirlari belgilanishini;

15 kun muddatda masofadan turib, shu jumladan mobil ilovalar orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini ko'paytirishi, undiriladigan to'lovlar miqdorini kamaytirishi, talab qilinadigan ortiqcha hujjatlarni bekor qilishi, ko'rib chiqish jarayonlari va muddatlarini keskin qisqartirishi, shaffoflikni oshirishi, aholi va tadbirkorlar bilan doimiy muloqot maydonchalarini tashkil etishi, xodimlarning muomala madaniyatini yuksaltirishi, tezkor va sifatli xizmat ko'rsatishga o'qitish bo'yicha tadbirlar dasturini tasdiqqa kiritsin hamda aholi va tadbirkorlarga e'lon qilinishini;

b) 2023-yil 1-sentabrdan boshlab aholi va tadbirkorlik subektlariga subsidiya ajratish bilan bog'liq barcha xizmatlar bosqichma-bosqich "Aholi va tadbirkorlik subektlariga subsidiya ajratishning yagona elektron platforma" sig'a o'tkazilishi hamda subsidiyalarni ajratishning maqsadga muvofiqligini elektron platforma orqali onlayn tekshirish tizimi yo'lga qo'yilishini;

bunda, subsidiyalar ajratish to'g'risidagi arizalarni Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali yoki istalgan tuman (shahar) davlat xizmatlari markazlari orqali topshirish imkoniyatini yaratish hamda ortiqcha byurokratik to'siqlar va boshqa korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish ta'minlanishini ta'minlasin;

d) shuningdek:

tashabbusli budjet amaliyotini hamda mahallalarning moliyaviy mustaqilligini kengaytirish maqsadida;

yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasini "shahar avtomobillar emas, balki piyodalar uchun" g'oyasi asosida isloh qilish maqsadida tegishli chora-tadbirlar belgilanishini ta'minlasin.

6. Viloyat hokimining o'rinbosari A.Xidirov:

elektr, gaz va suv sarfi hisoblagichlarini qiyoslashdan o'tkazish bo'yicha davlat

xizmatlarini proaktiv tarzda ko'rsatish (fuqaro murojaatini kutmasdan, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning o'z tashabbusi bilan) taklifini yuborish yo'lga qo'yilishini;

“Yangi O‘zbekiston” massivlarini rivojlantirish va aholining uy-joyga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida tegishli chora-tadbirlar belgilanishini ta’minlasin.

7.Viloyat hokimining o‘rinbosari I.Saparov:

ta'lim sifatini oshirish, sohani ilg'or xorijiy tajriba asosida isloh qilish maqsadida;

aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yaqinlashtirish va fuqarolarni sifatli tibbiy xizmatlar bilan ta'minlash, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash, shuningdek, bemorlarga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida;

aholi orasida yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va jismoniy faollik darajasini oshirish bo'yicha “To'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzi” umummilliy harakatini yo'lga qo'yish maqsadida tegishli chora-tadbirlar belgilanishini ta'minlasin.

8.Viloyat hokimining o‘rinbosari F.Ismoilov qishloq xo‘jaligini suv resurslari bilan barqaror ta‘minlash maqsadida tegishli chora-tadbirlar belgilanishini ta‘minlasin.

9.Termiz shahar va tumanlar hokimliklari, viloyatdagi davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlariga:

davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlarning o'z vaqtida va samarali ijro etilishini ta'minlash;

davlat dasturi ijrosi bo'yicha keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida muntazam ravishda mas'ul shaxslarning hisobotini eshitib borish;

davlat dasturining ijrosini har chorakda viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashi yig'ilishlarida muhokama qilib borilishini tashkil etish;

davlat dasturi ijrosi to'g'risidagi umumlashtirilgan ma'lumotlarni har oyning 25-sanasiga qadar viloyat hokimligiga taqdim etib borish topshirilsin.

10.Sog'liqni saqlash boshqarmasi (K.Abdivohidov) joriy yil davomida 18-40 yoshli aholini profilaktik ko'rikdan o'tkazish, 40 yosh va undan katta yoshdagi surunkali kasalligi bo'lmagan aholini yurak qon-tomir kasalliklari va qandli diabet kasalliklari, shuningdek onkologik kasalliklarni erta aniqlash bo'yicha skrining tekshiruvlaridan o'tkazish topshirilsin.

11.Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (X.Mamadiyev), Termiz shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda 2023-yil 1-sentabrdan boshlab:

har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy o'rta ta'lim muassasasida o'quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish amaliyotini;

viloyatdagi barcha umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish topshirilsin.

12. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari A.Oripov, A.Xidirov Adliya boshqarmasi (S.Abdurasulov), Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish boshqarmasi (S.Shaymardonov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (O‘.Choriyev), tegishli boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda o‘n besh kun muddatda masofadan turib, shu jumladan, mobil ilovalar orqali ko‘rsatiladigan davlat xizmatlarini ko‘paytirish, undiriladigan to‘lovlar miqdorini kamaytirish, talab qilinadigan ortiqcha hujjatlarni bekor qilish, ko‘rib chiqish jarayonlari va muddatlarini keskin qisqartirish, shaffoflikni oshirish, aholi va tadbirkorlar bilan doimiy muloqot maydonchalarini tashkil etish, xodimlarning muomala madaniyatini yuksaltirish, tezkor va sifatli xizmat ko‘rsatishga o‘qitish bo‘yicha tadbirlar dasturini ishlab chiqib tasdiqqa kiritсин.

13. Viloyat hokimining o‘rinbosari I.Saparov, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi viloyat hududiy boshqarmasi (Sh.Kichkilov) 2023-yil 1-sentabrga qadar malakali xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda Yevropa kasbiy ta‘lim va kasbga o‘qitish sifatini ta‘minlash tizimi talablariga to‘liq javob beradigan 1 ta namunaviy professional ta‘lim muassasasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish topshirilsin.

14. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari A.Oripov, I.Saparov, Axborot-tahlil guruhi F.Ochildiyev davlat dasturi ijrosi monitoringini yuritsin hamda dastur bajarilishi to‘g‘risidagi umumlashtirilgan ma‘lumotlarni har oy yakuni bilan Vazirlar Mahkamasiga kiritib borsin.

15. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari-hokimning matbuot kotibi M.Davlatov, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi (Z.To‘rayev), Surxondaryo viloyati teleradiokompaniyasi (B.Mengbayev), “Surxon tongi” va “Zarya Surxana” gazetalarini birlashgan tahririyati (S.Norqobilov) hamda boshqa ommaviy axborot vositalari ushbu qarorning maqsad va vazifalari ommaviy axborot vositalari, internet jahon axborot tarmog‘ida keng yoritish xamda davlat dasturi amalga oshirilishining borishi to‘g‘risidagi xolis va to‘liq ma‘lumotning keng jamoatchilikka tezkorlik bilan yetkazilishini ta‘minlash tavsiya etilsin.

16. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

Surxondaryo viloyat hokimi



U.B.Qosimov

Surxondaryo viloyat hokimining
2023 yil 17 martdagi
175-8-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid chora-tadbirlar dasturi

| T/r | D/b | Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|--|-----|--|------------------------------|------------------------|---------|--|---------------------|-------------------|
| I. INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ORQALI XALQPARVAR DAVLAT BARPO ETISH | | | | | | | | |
| 1-maqсад: Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish | | | | | | | | |

| T/r | D/b | Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|-----|-----|--|--|--|----------------|---|--|---|
| 1. | 1. | Fuqarolarning o'z mahallasi hayotidagi ishtirokini kuchaytirish hamda davlat organlari va mahallalar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni yo'lga qo'yish. | <p>“Raqamli mahalla” markazini tashkil etish hamda “Ijtimoiy mahalla” axborot tizimini joriy etish.</p> <p>Bunda: mahalladagi aholi va tadbirkorlarning mavjud muammo va kamchiliklarini “xonadonbay” o'rganish bo'yicha so'rovnomalarni o'tkazish, natijalarini tegishli davlat organlari va tashkilotlariga yuborish hamda ko'rilgan choralar to'g'risidagi ma'lumotlarni axborot tizimiga kiritish;</p> <p>“Temir daftar”ga kiritilgan oilalar hamda “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarga ko'rsatilgan yordam haqidagi ma'lumotlarni axborot tizimiga kiritib borish;</p> <p>mahallalarning hududi, maydoni, infratuzilmasi, chegarasi aks etgan xaritasi, xonadonlarning joylashuvi, raqamlari va ko'cha nomlarining yagona bazasini yuritish;</p> <p>“Ijtimoiy mahalla” axborot tizimi hamda “Elektron hukumat” tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali 40 turdagi ma'lumotlarning yagona bazasini yuritish nazarda tutiladi.</p> | Normativ-huquqiy hujjat loyahasiga taklif kiritish | 2023-yil aprel | Hokim yordamchilari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, Xotin-qizlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, Yoshlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armalari mablag'lari | Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Oripov | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (O'.Choriyev), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish boshqarmasi (S.Shaymardonov), Oila va xotin-qizlar boshqarmasi (Z.Xidirova) |

| T/r | D/b | Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|---|-----|--|---|--|----------------|--|--|---|
| 2. | 2. | Joylarda ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda mahallalar rolini oshirish. | 1. Mahallalarga tegishli hududdagi tuman (shahar) mahalliy Kengashlari sessiyalari kun tartibiga ko'rib chiqish uchun taklif kiritish, tuman (shahar) mahalliy Kengashlarining qarorlari loyihalarini ishlab chiqish va muhokama qilishda ishtirok etish huquqini taqdim etish. 2. Har bir mahallaning "o'sish nuqtalari" va ularda yashovchi aholining ehtiyojidan kelib chiqib, mahallaning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish maqsadida mahallalar qoshida tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish. 3. Mahallalarda "Tadbirkorlar kengashlari"ni tashkil etish, ularning maqomi va vazifalarini belgilash. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi taklif kiritish | 2023-yil may | - | Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Oripov | Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (O'.Choriyev), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Oila va xotin-qizlar boshqarmasi (Z.Xidirova), xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati (S.Abduraimov) |
| 6-maqsad: Davlat boshqaruvi tizimida ma'muriy apparatni ixchamlashtirish va ish jarayonlarini maqbullashtirish | | | | | | | | |
| 3. | 1. | Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarining ikkinchi bosqichi doirasida hududlardagi boshqaruv tizimini isloh qilish. | Mahalliy ijro hokimiyati organlarining faoliyatini chuqur tahlil qilgan holda ularning faoliyatini takomillashtirish va tashkiliy tuzilmasini maqbullashtirish, bo'ysunuv tizimini qayta ko'rib chiqish bo'yicha takliflarni tayyorlash. | Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga takliflar ishlab chiqish | 2023-yil aprel | - | Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (F.Mengliyev) | Adliya boshqarmasi (S.Abdurasulov) |
| 11-maqsad: Xalq bilan muloqot mexanizmlarini takomillashtirish | | | | | | | | |
| 4. | ??? | Hukumatning hududlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, hududlarda aholi tomonidan ko'tarilayotgan dolzarb muammolarni tezkor hal etish maqsadida har oyda kamida bir marotaba Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida Hukumat a'zolari ishtirokida "Hukumat kuni"ni o'tkazib borish amaliyotini yo'lga qo'yish. | 1. "Hukumat kuni"ni hududlar kesimida o'tkazish bo'yicha reja-grafikni va unda ishtirok etuvchi mansabdor shaxslar ro'yxatini tasdiqlash. 2. "Hukumat kuni" doirasida muhokama qilinadigan muammolarni tahlil qilish va uni Hukumat a'zolariga o'rganish uchun yetkazish bo'yicha sohalar kesimidagi doimiy ishchi guruhlarini shakllantirish. 3. "Hukumat kuni"ni o'tkazish tartibini tasdiqlash. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasi taklif kiritish | 2023-yil aprel | - | Viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi (F.Mengliyev) | Tashkilot, korxonalar va muassasalar, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari |
| III. MILLIY IQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISH VA YUQORI O'SISH SUR'ATLARINI TA'MINLASH | | | | | | | | |

| T/r | D/b | Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|--|-----|---|--|---|---------------------------------|--|--|--|
| 21-maqсад: Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,7 barobar (1 750 dollardan 2 800 dollarga) va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 2,6 ming AQSH dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish | | | | | | | | |
| 5. | 40. | Iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. | 2023-yilda iqtisodiy o'sish sur'atlarini 5,2 foizga, aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi 14,8 mln. so'm bo'lishini ta'minlash. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | - | Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Oripov | Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi (S.Xudoyberdiyev) Markaziy bank bosh boshqarmasi (A.To'xtayev), Termiz shahar va tumanlar hokimliklari |
| 22-maqсад: Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 2023-yilda 1,1 barobar, 2026-yilga kelib 1,9 barobarga oshirish | | | | | | | | |
| 6. | 46. | Umumiy qiymati 832,1 mln. dollarlik 292 ta ziyod loyihani ishga tushirish va 44 ta yangi yirik loyihani amalga oshirishni boshlash. | 1. Loyihalar kesimida tarmoq jadvallari ishlab chiqilib, har bir ishga tushadigan loyihaga mas'ullarning birlashtirilishi va tasdiqlanishini ta'minlash hamda ijroga qaratish. 2. Tarmoq jadvalarida belgilangan chora-tadbirlarning natijadorligini tahlil qilib borish, mavjud muammoli masalalarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil mart - har oy yakunida | - | Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Oripov | Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi (S.Xudoyberdiyev), Termiz shahar va tumanlar hokimliklari |
| 24-maqсад: Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 10 foizga qisqartirish | | | | | | | | |
| 7. | 48. | Kichik hajmdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni keskin oshirish. | 2023-yilda idora va tashkilotlar, tuman (shahar) hokimliklari tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o'rnatish bo'yicha manzilli dastur ishlab chiqish loyihasi takliflar berish. | Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi takliflar ishlab chiqish | 2023-yil mart - aprel | - | Viloyat hokimining o'rinbosari A.Xidirov | "Surxondaryo HETK" AJ (M.Shamsiddinov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari |
| 26-maqсад: Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 1,5 milliard AQSH dollari xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish | | | | | | | | |
| 8. | 75. | 2023-yildan boshlab har bir hokim o'z tumaniga 40-50 million dollar xususiy investitsiya olib kelishini tashkil etish. | 1. Shahar va tumanlar, investitsiya loyihalari kesimida manzilli loyihalar ro'yxatini shakllantirish va tasdiqlash. 2. Investitsiyalarni o'zlashtirish bo'yicha oyma-oy grafiklar ishlab chiqish, ularni tasdiqlash. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil mart - | - | Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Oripov | Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi (S.Xudoyberdiyev), Termiz shahar va tumanlar hokimliklari |

| T/r | D/b | Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|--|-----|---|--|-----------------------------------|-------------------|--|--|---|
| 9. | 76. | Investitsiya dasturlarini mahalla darajasiga tushirish va mahallalarning moliyaviy vakolatlarini kengaytirish. | Mahallaning o'z muammolarini mustaqil hal etishi uchun "Mahalla budjeti" tizimini soliqlarni undirish ko'rsatkichi past bo'lgan har bir viloyatlardan bittadan tumanda eksperiment tariqasida joriy etish hamda uning samaradorligi, natijadorligi va tizimni barcha tuman (shahar)larda joriy etish yuzasidan taklif kiritish. | Tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar | 2023-yil mart | Hisob-kitoblarga ko'ra | Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Oripov | Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (O'.Choriyev), Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi (S.Xudoyberdiyev) Termiz shahar va tumanlar hokimliklari |
| 28-maqсад: Viloyatning eksport salohiyatini oshirish orqali 2023-yilda viloyat eksport hajmlarini 317 mln. AQSH dollariga yetkazish | | | | | | | | |
| 10. | 83. | 2023-yil uchun belgilangan 317,1 mlrd. dollar eksport rejasini bajarish. Bunda: Bunda, 152,9 mln. dollarlik sanoat mahsulotlari, 164,1 mln. dollarlik mevasabzavot mahsulotlari eksport qilishiga erishish. | Ushbu ko'rsatkichlarning ijrosini ta'minlash uchun shahar va tuman hokimlik, mas'ul aloqador tashkilotlar bilan birgalikda 2023-yilda eksportchi korxonalarni moliyaviy va huquqiy qo'llab-quvvatlash choralari ko'rish. Xususan: Eksportyor korxonalarining eksport faoliyatida vujudga kelayotgan muammolarini, o'rganib borish va ularni bartaraf etish choralari ko'rish. Mahalliy korxonalarni eksportoldi moliyalashtirish uchun zarur kredit mablag'larini muntazam ravishda ajratib borish. Eksportyor qiluvchi tadbirkorlarga muntazam ravishda transport xarajatlarining bir qismini qoplab berish; Respublika va xorijiy davlatlarda bo'lib o'tadigan xalqaro yarmarka va ko'rgazmalarda mahalliy tadbirkorlar ishtirokini ta'minlash. Yangi tashqi bozorlarga chiqish orqali eksport geografiasini kengaytirish choralari ko'rish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | Hisob-kitoblarga ko'ra | Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Oripov | Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi (S.Xudoyberdiyev) Termiz shahar va tumanlar hokimliklari |

| T/r | D/b | Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|-----|-----|--|--|------------------------|--|--|--|--|
| 11. | 84. | 2023-yilda tayyor mahsulotlar eksportini qo'shimcha 4 million dollarga oshirish. | Tayyor mahsulotlar eksport hajmining ijrosini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijadorligini tahlil qilib borish, mavjud muammoli masalalarni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rib borish. Mahalliy eksportchi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish. Korxonalariga eksport shartnomalarini imzolash va ijrosini tashkil etish choralarini ko'rish. Korxonalariga xalqaro standart va sertifikatlarni joriy qilish uchun o'rnatilgan tartibda moliyaviy yordam ko'rsatish | Amaliy chora-tadbirlar | Har chorakda Har oyda kamida 1 marta 2023-yil mart 2023-yil davomida 2023-yil davomida Tadbirlar grafigiga muvofiq | - | Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Oripov | Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi (S.Xudoyberdiyev) tijorat banklari, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari |
| 12. | 85. | “Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturini davom ettirish. | 1. Eksportni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaratilgan imkoniyatlarni keng targ'ib qilish orqali tadbirkorlik subyektlarini eksport faoliyatiga faol jalb qilish. 2. Investitsiya dasturlari doirasida ishga tushirilgan yangi korxonalarini eksport faoliyatiga jalb qilish. 3. “Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturi doirasida 2023-yilda 100 ta eksportchini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash va ularni rag'batlantirish choralarini ko'rish. 4. Mahalliy korxonalarining tashqi bozorlarga chiqishiga yo'l ochib berish maqsadida “tadbirkordan — eksportyorgacha” tamoyili asosida chora-tadbirlar dasturiga muvofiq mahalliy korxonalarini tashqi bozorlarga chiqishiga ko'maklashish. | Amaliy chora-tadbirlar | Tadbirlar grafigiga muvofiq 2023-yil davomida, har chorak yakuni bo'yicha hisobot kiritgan holda 2023-yil davomida, har chorak yakuni bo'yicha hisobot kiritgan holda | Hisob-kitoblarga ko'ra | Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Oripov | Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi (S.Xudoyberdiyev) tijorat banklari, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari |

| T/r | D/b | Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|--|-----|--|--|------------------------|-----------------------------------|--|--|--|
| 13. | 87. | Eksport qiluvchilarga transport va boshqa xarajatlarni kompensatsiya qilish ishlarini davom ettirish. | 1. Eksport qiluvchilarning transport va boshqa xarajatlarini kompensatsiya qilish tizimi to'g'risida tadbirkorlik subyektlarining xabardorligini oshirish. | Amaliy chora-tadbirlar | Doimiy ravishda buyurtmaga asosan | Hisob-kitoblarga ko'ra | Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Oripov | Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi (S.Xudoyberdiyev), Iqtisod va moliya bosh boshqarmasi, tijorat banklari, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari |
| 14. | 91. | Turizm xizmatlari eksportini 20 mln. dollarga yetkazish. | Joylashirish va mehmonxona vositalari, ovqatlanish, transport xizmatlarini kengaytirish va hunarmandchilik ustaxonalari, zargarlik, suvenir mahsulotlari savdosini yo'lga qo'yish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | | Viloyat hokimining o'rinbosari J.To'rayev | Transport boshqarmasi (X.Voxidov), Turizm va madaniy meros boshqarmasi (Z.Alimardonova), Termiz shahar va tumanlar hokimliklari |
| 30-maqсад: Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish | | | | | | | | |
| 15. | 98. | 2023-yilda suv ta'minoti yaxshi bo'lgan 8,5 ming gektargacha qo'shimcha ekin maydonlarini dehqonchilik ko'nikmalariga ega bo'lgan, shu jumladan "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan aholiga ajratish hisobidan qariyb 20,8 mingta yangi dehqon xo'jaliklarini tashkil etish. | 1. Dehqon xo'jaliklarini tashkil etish uchun fermer xo'jaliklari va agrosanoat klasterlariga ijaraga berilgan, ular tomonidan samarali foydalanilmayotgan, suv ta'minoti tizimi yaxshi bo'lgan, aholi yashash joylariga yaqin bo'lgan, lotlarga bo'lish natijasida konturlar yaxlitligi buzilmaydigan yerlarni tanlab olish tartibini joriy etish. 2. Dehqon xo'jaliklariga ajratilgan yer maydonlarida hududlar ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan eksportbop va bozorboq qishloq xo'jaligi ekinlari ekilishini ta'minlash. 3. Sabzavot, poliz, dukkakli, moyli va kartoshka ekinlarini intensiv usulda ekish ishlarini tashkil etish. 4. Kooperatsiya tizimi asosida mahsulot yetishtirish va sotishni yo'lga qo'yish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | Tashabbuskorlar mablag'lari | Viloyat hokimining o'rinbosari F.Ismoilov | Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (R.Gapparov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (O'.Choriyev), "Amu-Surxon" ITHB (T.Alimov), tumanlar hokimliklari |

| T/r | D/b | Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|-----|------|---|---|-------------------------|---------------|--|---|---|
| 16. | 99. | 52,2 mingta yangi dehqon xo'jaliklarini tadbirkorga, yer egasiga aylantirish, buning hisobiga qishloqlarda ijtimoiy muammolar, avvalo, ishsizlik va kambag'allik masalasini hal etish ishlarini davom ettirish. | 1. Hududlar kesimida mahsulotlarni xomashyo bazasiga nisbatan mavjud saqlash va qayta ishlash quvvatlarini o'rganish. 2. O'rganish natijalariga ko'ra infratuzilma (elektr, tabiiy gaz, ichimlik suv, oqova, transport yo'li) obyektlari bilan ta'minlash choralari belgilash va loyihalarni shakllantirish. 3. Belgilangan loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirish choralari ko'rish. | Chora-tadbirlar dasturi | 2023-yil mart | Tadbirkorlik subyektlari o'z mablag'lari, tijorat banklari kreditlari, xalqaro moliya institutlari mablag'lari, xorijiy investitsiyalar budget mablag'lari | Viloyat hokimining o'rinbosari F.Ismoilov | Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (R.Gapparov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (O'.Choriyev), tumanlar hokimliklari |
| 17. | 100. | Agrar sohada yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish loyihalariga 2023-yilda 30 mln AQSH dollari ajratish.. | 1. Agrar sohaning barcha yo'nalishlarida yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish loyihalarining manzilli ro'yxatini hududlar kesimida shakllantirish. 2. Manzilli ro'yxatni mas'ullar va tijorat banklari bilan kelishish. 3. Shakllantirilgan dasturni kelishish uchun vazirlikka taqdim etish. | Chora-tadbirlar dasturi | 2023-yil mart | Tadbirkorlik subyektlari o'z mablag'lari, tijorat banklari kreditlari, xalqaro moliya institutlari mablag'lari, xorijiy investitsiyalar | Viloyat hokimining o'rinbosari F.Ismoilov | Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (R.Gapparov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (O'.Choriyev), tumanlar hokimliklari |
| 18. | 102. | Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali 2023-yilda daromadni kamida 25 foizga oshirish. | Meva-uzumchilikda yangidan 1 ta "In-vitro" laboratoriyasida 300 ming dona sertifikatlangan ko'chatlarni ko'paytirish uchun 0,10 gektar issiqxonalar tashkil etish. | Chora-tadbirlar dasturi | 2023-yil mart | Hisob-kitoblarga ko'ra | Viloyat hokimining o'rinbosari F.Ismoilov | Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (R.Gapparov) |
| 19. | 104. | Eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog'lar maydonini 1,1 baravar va issiqxonalarini 1,2 baravar ko'paytirish. | 1. "Tayyor holda topshirish" sharti asosida 260 gektarda intensiv bog' va tokzorlarni barpo etish hamda aholiga bo'lib to'lash sharti bilan ajratish. 2. Sertifikatlangan 312 ming dona meva ko'chatlari bilan ta'minlash. 3. 2023-yilda 3,2 ming gektar tokzor va 5,6 ming gektar yangi bog'lar barpo etish va buning uchun 7,4 mln dona ko'chatlar yetkazib berish. 4. 2023-yilda 250 gektarda issiqxonalarini tashkil etish. 5. Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari eksportini 2023-yilda 164,1 mln dollarga yetkazish choralari ko'rish. | Chora-tadbirlar dasturi | 2023-yil mart | Loyiha tashabbuskorlari va tijorat banklari mablag'lari | Viloyat hokimining o'rinbosari F.Ismoilov | Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (R.Gapparov), Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (O'.Choriyev), Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi (S.Xudoyberdiyev), tumanlar hokimliklari |

| T/r | D/b | Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|--|------|--|---|------------------------|---------------|--|---|--|
| 20. | 107. | Agrologistika markazlarini rivojlantirish. | Viloyatimiz hududlarida 4 ta agrologistika markazi (quvvati 25 ming tonna) faoliyatini yo'lga qo'yish.. | Chora-tadbir dasturi | 2023-yil mart | Xalqaro moliya institutlari mablag'lari, bank kreditlari | Viloyat hokimining o'rinbosari F.Ismoilov | Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (R.Gapparov), Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi (S.Xudoyberdiyev), tumanlar hokimliklari |
| 31-maqсад: Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish | | | | | | | | |

| T/r | D/b | Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|-----|------|---|--|------------------------|---------------------------|--|---|---|
| 21. | 110. | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha tushumlarning bir qismini tumanlarda sug'orish xizmatlarini rivojlantirish, ariq, zovur va kanallarni betonlashga yo'naltirish. | 1. Har bir viloyat bo'yicha alohida ishchi guruh tuzish hamda tumanlardagi irrigatsiya tizimi kanallari, xo'jaliklararo (fermerlararo) va ichki sug'orish tarmoqlari hamda ulardagi suv olish joylari va mavjud suv xo'jaligi inshootlarini xatlovdan o'tkazib, dalolatnomalarni rasmiylashtirish. 2. Tumanlardagi irrigatsiya tizimi kanallari, xo'jaliklararo (fermerlararo) va ichki sug'orish tarmoqlarini beton qoplamali qilish, lotok tarmoqlari qurish, ulardagi suv xo'jaligi inshootlarini ta'mirlash, tiklash, yangilarini qurish, bosh suv olish joylarini suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan jihozlash, suv xizmatini rivojlantirish, shuningdek, kollektor-drenaj tarmoqlarini tozalash ishlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda moliyaviy hisob-kitoblar qilish. 3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasi va me'yorlarini, shuningdek, uni hisoblash va undirish tizimini, shuningdek, xorijiy tajribalarni tahlil qilish. 4. Tumanlardagi irrigatsiya tizimi kanallari, xo'jaliklararo (fermerlararo) va ichki sug'orish tarmoqlarini betonlash hamda ulardagi suv xo'jaligi inshootlarini ta'mirlash-tiklash, yangilarini qurish, bosh suv olish joylarini suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan jihozlash, suv xizmatini rivojlantirish, shuningdek, kollektor-drenaj tarmoqlarini tozalash ishlarini, suv xizmatini rivojlantirish ishlarini amalga oshirish uchun suv solig'i tizimini takomillashtirish yuzasidan taklif tayyorlash. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil mart, aprel, may | Hisob-kitoblarga ko'ra | Viloyat hokimining o'rinbosari F.Ismoilov | "Amu-Surxon" ITHB (T.Alimov), Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (R.Gapparov), Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, tumanlar hokimliklari |

| T/r | D/b | Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|---|------|---|--|-------------------------|---------------|--|---|--|
| 32-maqсад: Chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 baravar ko'paytirish | | | | | | | | |
| 22. | 114. | Chorvachilikda yillik o'sish sur'atini kamida 6 foizga yetkazish. | Quyidagilarni nazarda tutuvchi dastur ishlab chiqish: chorvachilikda o'sish sur'atini o'rtacha 6 foizga oshirish; qoramollar bosh sonini 1,1 mln boshga, shundan sigirlar bosh sonini 0,5 mln boshga, go'sht ishlab chiqarishni 213 ming tonnaga, sut — 971 ming tonnaga yetkazish; 548 mln dona tuxum va 17 ming tonna parranda go'shti ishlab chiqarish. | Chora-tadbirlar dasturi | 2023-yil mart | - | Viloyat hokimining o'rinbosari F.Ismoilov | Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi (A.Yusupov), tijorat banklari, tumanlar hokimliklari |

| T/r | D/b | Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|-----|------|---|--|-------------------------|---------------|---|---|--|
| 23. | 115. | Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish. | <p>1. Chorva mollari bosh sonini ko'paytirish va mahsuldorligini oshirish bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirish. Bunda: chorvachilik sohasida 119 ta loyihani amalga oshirish bo'yicha moliyalashtirish manbalari aniq ko'rsatilgan manzilli dasturni ishlab chiqish; sun'iy urug'lantirishga jalb etilgan 127 nafar texnik oseminatorlardan 15 foizining bosqichma bosqich grafik asosida malakasini oshirish; 8 ta chorvachilik subyektini "Naslchilik toifasi"ga o'tkazish; aholi xonadonlaridagi 196 ming bosh (60 foiz) sigir va urug'lantirish yoshidagi tanalarni sun'iy urug'lantirish.</p> <p>2. Parrandachilik yo'nalishida naslchilik xo'jaliklari sonini 4 taga yetkazish, bunda: inkubatsion tuxum ishlab chiqarishni 11 mln donaga yetkazish; parrandachilik yo'nalishidagi 18 ta loyihani amalga oshirish nazarda tutiladi.</p> <p>3. Baliqchilikni rivojlantirish va baliq yetishtirish hajmini ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash. Bunda: hududlardagi hosildorligi past bo'lgan sun'iy suv havzalarini bosqichma-bosqich intensivlashtirish va baliq yetishtirish hosildorligini 4-5 baravarga oshirish; 1 ta baliqlar uchun mo'ljallangan yuqori oqsilga boy omuxta yem korxonasini ishga tushirish; baliq lichinkalarini ishlab chiqarishga mo'ljallangan 2 ta zamonaviy inkubatsiya sexi va 10 gektar maydonda reproduktor havzalar barpo etish.</p> <p>4. Asalari oilalari sonini ko'paytirish va mahsuldorligini oshirish. Bunda: 2023-yilda asalari oilalari sonini 81,4 ming donaga yetkazish va 928 tonna asal yetishtirishni tashkil etish.</p> | Chora-tadbirlar dasturi | 2023-yil mart | Xalqaro moliya institutlari va tijorat banklari kreditlari va tashabbuskorlar o'z mablag'lari | Viloyat hokimining o'rinbosari F.Ismoilov | Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (R.Gapparov), "Amu-Surxon" ITHB (T.Alimov), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi (A.Yusupov), tijorat banklari, tumanlar hokimliklari |
| | | | | 16 | | | | |

| T/r | D/b | Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|---|------|--|--|-------------------------|-------------------|---|--|---|
| 24. | 116. | Chorvachilik ozuqa bazasini mustahkamlash. | Quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish: chorva ozuqa maydonini 28,3 ming gektarga yetkazish; paxta va g'alla maydonlarining 10 foiziga almashlab (beda va boshqa chorva uchun ozuqabop ekinlar) ekishni tashkil etish; chorvachilik subyektlari va aholidagi chorva mollarini to'yimli ozuqa bilan ta'minlash maqsadida "Gidroponika" usulida ozuqa ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar sonini 26 taga yetkazish. | Chora-tadbirlar dasturi | 2023-yil mart | Xo'jalik yurituvchi subyektlar mablag'lari, shu jumladan, bank kreditlari | Viloyat hokimining o'rinbosari F.Ismoilov | Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (R.Gapparov), tumanlar hokimliklari |
| 33-maqсад: Hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4 — 1,6 baravarga oshirish | | | | | | | | |
| 25. | 118. | 2023-yilda aholi tomonidan taklif berilgan suv, elektr energiyasi, yo'l, maktab kabi yo'nalishlar, shuningdek, mahallalar infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish. Bunda, ajratilgan mablag'lar va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan keng jamoatchilikni xabardor qilish. | "Ochiq budget" axborot portali orqali 2023-yilda yo'naltirilishi nazarda tutilgan mablag'lar doirasida "Tashabbusli budget", "Mening yo'lim" hamda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlarini jamoatchilik fikri asosida shakllantirishda faol ishtirok etish. Aholining yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish dasturini davom ettirish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | Hisob-kitoblarga ko'ra | Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Oripov | Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari |
| 26. | 119. | 48 ta ko'p kvartirali uy-joylarni mukammal va joriy ta'mirlash ishlarini amalga oshirish. | 19 ta ko'p kvartirali uylarning tom qismini joriy va mukammal ta'mirlash, 69 ta kirish yo'laklari, 17 ta uylarning fasad qismi, 4 ta uylarning yerto'la qismi hamda 27 dona elektr taqsimlovchi shitlarni ta'mirlash, 36 ta kodli qulflanadigan temir eshiklar o'rnatish bo'yicha manzilli ro'yxatni shakllantirish va unda belgilangan tadbirlarni amalga oshirish. | Amaliy chora-tadbirlar | 2023-yil davomida | Hisob-kitoblarga ko'ra | Viloyat hokimining o'rinbosari A.Xidirov | Qurilish bosh boshqarmasi (K.Eshmatov), Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmasi (P.Tangriyev), Termiz shahar va tumanlar hokimliklari |

| T/r | D/b | Ustuvor yo'nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari) | Nazorat qiluvchilar | Mas'ul ijrochilar |
|--|------|---|---|--|------------------|--|--|---|
| 27. | 120. | Aholi uchun yangi uy-joylar qurish hajmini 1,6 baravarga oshirib, 7 mingga yetkazish va imtiyozli shartlar asosida ipoteka kreditlari berishni davom ettirish. | 1. Joylardagi aholining uy-joyga bo'lgan talabidan kelib chiqib, yangi uy-joylar qurishni davom ettirish bo'yicha manzilli dasturlarga takliflar shakllantirish. Bunda, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalangan holda, elektr va issiqlik energiyasi uchun ehtiyojning bir qismini qoplashni nazarda tutish. 2. 2022-yilda qurish ishlari boshlangan 4 ta "Yangi O'zbekiston" massivlarida uy-joylar qurilishini davom ettirish. 3. Uy-joy sotib olish uchun boshlang'ich to'lov va ipoteka kreditining bir qismini qoplashga 120 mlrd. so'm miqdorida subsidiyalar ajratish. 4. Uy-joylar qurilayotgan massivlarning ijtimoiy infratuzilmasi va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini davlat budjeti hisobidan qurilishini ta'minlash. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasiga taklif kiritish | 2023-yil aprel | Loyiha-smeta hujjatlari asosida tijorat banklari kreditlari, tadbirkorlik subyektlari mablag'lari, Respublika budjeti mablag'lari 120 mlrd. so'm | Viloyat hokimining o'rinbosari A.Xidirov | Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Qurilish bosh boshqarmasi (K.Eshmatov), Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish boshqarmasi (P.Tangriyev), Markaziy bank bosh boshqarmasi (A.To'xtayev), Termiz shahar va tumanlar hokimliklari |
| 34-maqсад: Hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish | | | | | | | | |
| 28. | 124. | Davlat budjetini shakllantirishda, shu jumladan, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturidagi obyektlarni rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha manzilli ro'yxatlarni shakllantirishda fuqarolar ishtirokini kengaytirish. | Davlat budjetini shakllantirishda, shu jumladan, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturidagi obyektlarni rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash bo'yicha manzilli dasturlarni shakllantirishda fuqarolarning xabardorligi va faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlarini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasiga taklif kiritish. | Normativ-huquqiy hujjat loyihasiga taklif kiritish | 2023-yil sentabr | - | Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Oripov | Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari |

